

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI**

PhD.03/31.03.2023.T.66.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

NEMATOVA DILDORA ODILJON QIZI

**SABZI ILDIZMEVASINI QAYTA ISHLASH VA ORGANIK KUKUN OLIH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.17 – Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta
ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Nematova Dildora Odiljon qizi

Sabzi ildizmevasini qayta ishlash va organik kukun olish texnologiyasini takomillashtirish 3

Нематова Дилдора Одилжон кизи

Совершенствование технологии переработки моркови и получения органического порошка 21

Nematova Dildora

Improvement of carrot processing technology and production of organic powder..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 42

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI**

PhD.03/31.03.2023.T.66.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

NEMATOVA DILDORA ODILJON QIZI

**SABZI ILDIZMEVASINI QAYTA ISHLASH VA ORGANIK KUKUN OLIH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**02.00.17 –Qishloq xo‘jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta
ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T4611 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nammti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim tarmog'iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Merganov Avazxon Turg'unovich
Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Sherzod Mashrabjonovich
Texnika fanlari doktori, professor

Mamadjonov Latifjon
Texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo - texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/31.03.2023.T.66.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «15» mart soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, 3- bino, 2-qavat, Ilmiy kengash xonasi, 303- xona).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (369-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «27» fevral kuni tarqatildi.
(2025-yil «27» fevraldagi № 17-raqamli reestr bayonnomasi)



A.A. Xudayberdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash raisi, t.f.d., professor

O .T. Mallabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash kotibi, dotsent

A.M. Xurmamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Dunyoda sabzi ildizmevasini yetishtirish, agro-biologik hususiyatlarini o'rganish va urug'larini unuvchanligini oshirish bo'yicha ko'plab ishlanmalar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlarda sabzi ildizmevasini quritish va saqlash me'yorlari va rejimlari, qayta ishlash usullari, oziq-ovqat sohasida qo'llanish usullari ishlab chiqilgan. Sabzi ildizmevasidan qayta ishlash sanoatida ingrediyentlar qo'shib shifobaxsh sharbatlar, oziq-ovqat sanoatida esa organik kukunidan non va non mahsulotlari tayyorlashni ilmiy asoslari kam o'rganilgan. Shu nuqtai nazarda qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va sanoatda yangi tur mahsulotlar tayyorlash, eksportga yo'naltirish bugungi kundagi dolzarb masalalar hisoblanib, muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish, zamonaviy texnologik jarayonlar asosida yangi turdagi mahsulotlar yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, samaradorligi yuqori zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Meva va sabzavotlarni qayta ishlash, ular asosida yangi turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, aholini doimiy ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish, energiya sarfini qisqartirish orqali chiqindisiz texnologiyalar asosida yangi funksional mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarda bajarilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda meva-sabzavotlarni samarali qayta ishlash jarayonida xomashyo tarkibini to'liq saqlab qolish imkonini beruvchi texnologiyalarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sharbat ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish maqsadida ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, xomashyolarni kompleks qayta ishlash, tarmoq korxonalarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori texnologik samarador uskunalarni bilan qayta jihozlash bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «... oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirishda 2026-yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini 898 tadan 1100 taga yetkazish...»¹ kabi vazifalar belgilab berilgan. Bu borada sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, ikkilamchi hom ashyolardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi, 2018-yil 29-martdagi PF-5388-sonli "O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 9-sentyabrdagi PQ-4821-sonli "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

29-iyuldagi PQ - 4406-sonli “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi va amaliy loyiha Davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ilmiy manbalarda sabzi ildizmeva o‘simligini agro-biologik hususiyatlari, ekish usullari va muddatlari, ildizmevasini dastlabki qayta ishlash usullari, quritish, saqlash, oziq-ovqat sohasida foydalanish bo‘yicha bir qator ilmiy va amaliy natijalar bayon qilingan. Jumladan, qayta ishlash usullari bo‘yicha Hindistonda Sharma S., Sharma K.D., Ladumor R.G., Nandre B.M., Sharma M.K., Wankhade V.R., Joshi P.C. sabzi ildizmevasi kukunidan sut mahsulotlariga qo‘llash bo‘yicha Polshada Emel Y., Aneta W., Jan O., Paulina N. Eronda Hosain D., Ahmad B., Mohammad Z. sabzi kukunini makaron va go‘sht mahsulotlarida qo‘llash bo‘yicha Rossiya Federatsiyasida Assenova B., Okus Khanova E., Smolnikova F., Nikolaeva N., Vlasova K., Gayvas A., Konovalov S., Vorobyev D., Rotanov E. Germaniyada sabzi ildizmevasini quritish agenti va parametrlari bo‘yicha Doymaz I. tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan va muayyan natijalarga erishilgan.

Respublikamiz bir qator olimlari tomonidan ham sabzi o‘simligini tuproq va iqlim sharoitlarga mos navlarini rayonlashtirish, ildizmevasini qayta ishlash bo‘yicha ham salmoqli ishlar olib borilgan. Jumladan, yetishtirish bo‘yicha Zuyev V.I., Qodirxo‘jayev O., Asadov Sh.I., Ostonaqulov E.T. saqlash va qayta ishlash bo‘yicha Bo‘riyev H.Ch., Alimova R.A., Oripov R. ildizmevasidan sharbat tayyorlash bo‘yicha Kazakov A. organik kukun tayyorlash bo‘yicha Norinboyev B., Xudoyberdiyev T. ikkilamchi tur mahsulotidan murabbo tayyorlash bo‘yicha Xojiyev R. bir qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Biroq, sabzi ildizmevasidan turli ingrediylar qo‘shib, shifobaxsh sharbatlar tayyorlash va ildizmevasini quritib organik kukun olish, undan non va non mahsulotlari tayyorlash uchun BFQ sifatida foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqot kam olib borilgan.

Tadqiqotning maqsadi sabzi ildizmevasini qayta ishlash va organik kukun olish texnologiyasini takomillashtirish orqali keng assortimentli mahsulotlar yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

sabzi ildizmevasini innovatsion qayta ishlash orqali tayyorlangan sharbatni sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

olingan sharbat turlari va mahsulot namunalari tayyorlash orqali sanoat sinovlarini o‘tkazish;

sabzi ildizmevasini zamonaviy quritish usullari va texnologik parametrlarini o‘rganish;

quritilgan mahsulotlardan organik kukun tayyorlash va oziq-ovqat sanoatida qo‘llash texnologiyasini ishlab chiqish;

quritilgan mahsulotlardan tayyorlangan organik kukun xomashyosini regidratatsiya darajasini taxlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘ziga xos fizik-mexanik tavsifga ega bo‘lgan sabzi ildizmevasi, undan olingan sharbat hamda hosil bo‘lgan ikkilamchi xom ashyo kukuni olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida sabzi ildiz mevasidan sharbat olishning optimal rejimlarini aniqlash, qolgan ikkilamchi xom ashyosidan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirishda sharbat olish jarayonini tezlashtirish, organik kukun olish takomillashtirish, texnologik jarayonlarning matematik modellashtirish va optimallashtirish usuli qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat bo‘lib:

tuproq va iqlim sharoitlarida xorijiy sabzi navlari tanlab olingan va organoleptik ko‘rsatkichlari yuqori sharbat tayyorlash texnologiyasi aniqlangan;

sabzi ildizmevasidan tabiiy ingrediyentlar (zanjabil, asal, limon kislota, olma kislota) qo‘shilgan sharbat tayyorlash va “Ommabop”, “Parxezbop” hamda “Bolalar uchun maxsus” sharbat namunalarini retsepturasi ishlab chiqilgan;

sabzi ildizmevasidan innovatsion usulda quritilgan organik kukun tayyorlashning texnologik parametrlari ishlab chiqilgan;

sabzi ildizmevasidan olingan sharbatning texnik shart, texnologik yo‘riqnomasi ishlab chiqilgan va sabzi ildizmevasini innovatsion qayta ishlashning texnologik sxemasi ishlab chiqilib, iqtisodiy ko‘rsatkichlari 23 % yuqoriligi isbotlangan, sabzi ildizmevasidan tayyorlangan organik kukun olish texnologiyasi bo‘yicha regidratatsiya darajasi 97 % gacha isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijasiga ko‘ra “Ommabop”, “Parxezbop” va “Bolalar uchun maxsus” sharbat turini tayyorlash uchun (TSH) va (TY) ishlab chiqilib, sanoatda yangi turdagi mahsulotlar tayyorlash texnologiyasi yaratilgan;

me‘yoriy xujjatlarga muvofiq Chortoq tuman “Billur Arkon” sanoat korxonasi mahsulot tayyorlanib, ikki bosqichli sanoat sinovlari o‘tkazilgan;

mahsulotni qayta ishlash texnologiyasi bo‘yicha TY 203948386-01:2024 ishlab chiqilgan;

sabzi ildizmevasidan organik kukun tayyorlashning asosiy parametrlari, fizik hususiyati va kimyoviy tarkibi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

eksperimental natijalarni olishda yuqori aniqlikdagi namlik analizatorlari, analitik tarozilardan foydalanilganligi, MATLAB 6.5, STATISTIKA 6.0 kabi zamonaviy operatsion muhitlar yordamida kompyuterda modellashtirilganligi, matematik modellarning aniqligi va ko‘rilayotgan soha bo‘yicha ularni baholash mezonlarining aynan bir xilligi, o‘tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari hamda laboratoriya sharoitida olingan natijalarni tajriba sanoat tadqiqotlarida foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* sabzi ildizmevasidan sharbat tayyorlashda mahalliy va horijiy sabzi navlarini biologik hususiyatlari va kimyoviy tarkiblari, sharbat olish jarayonini takomillashtirilganligi va ushbu uslubda zamonaviy modellashtirish vositalaridan keng ko‘lamda foydalanib, sharbat olishda hosil bo‘lgan ikkilamchi xom ashyodan kukun olish texnologik tizimi ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* sharbat olish jarayonining aniqlangan samarali texnologik rejimlari va sabzi ildizmevasini quritish vaqti, mahsulotni kesish qalinligi hamda uning ikkilamchi hom ashyolarini o‘rganilganligi va sabzi ildizmevasidan organik kukun tayyorlash uchun birlamchi qayta ishlash usuli natijasida tayyor mahsulot sifati sezilarli ortishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sabzi ildizmevasini qayta ishlash va organik kukun olish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ildizmevalar kukuni asosida keks tayyorlash usuliga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Intellektual mulk markazi” Davlat muassasasi tomonidan ixtiroga patent olingan (FAP №022383. 2024 y.). Natijada, sabzi ildizmevasidan tayyorlangan organik kukundan foydalanib oziq-ovqat sanoatida keks tayyorlash uchun mahsulot hajmiy nisbatini 25 % sabzi kukuni, 1÷1,5 % gacha zanjabil kukuni BFQ sifatida foydalanish imkonini bergan;

Sabzi ildizmevasini kompleks qayta ishlab sharbat olish jarayonini takomillashtirish texnologiyasi “Meva’s Agro” MChJ 2024-2025-yillarda amaliyotga joriy etiladigan ishlar ro‘yxatiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024-yil 8-iyundagi 08-57/06-24-sonli -sonli ma’lumotnomasi). Natijada olingan sharbatning sifat ko‘rsatkichlari yahshilanishiga, ozuqaviylik qiymati ana’naviy mahsulot turiga nisbatan 25-30 % ga yuqori bo‘lishiga erishiladi. Qayta ishlash korxonasida yangi turidagi mahsulotlar tayyorlanishi hisobiga rentabellik darajasi “Ommabop” sharbatlarda 23,0 % ga, “Parxebop” va “Bolalar uchun maxsus” sharbatlarda 28,5 % ortish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya doirasidagi ilmiy ishlanmalar yillik va yakuniy hisobotlar shaklida Namangan muhandislik-texnologiya instituti aprobatsiya hay’ati tomonidan aprobatsiyadan o‘tkazilgan. Namangan muhandislik-texnologiya instituti Kengashida muhokama etilgan. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, shu jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, shuningdek Respublika va viloyatlarda o‘tkazilgan ko‘rgazmalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining ilmiy natijalari 13 ta ilmiy ishlarda o‘z aksini topgan, bundan 1 ta tavsiyanoma, 1 ta foydali model bo‘yicha Respublika Intellektual MulK Agentligining № FAP 02383-sonli patenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan, 2 ta yuqori impakt faktorli (WOS va SCOPUS) xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya hajmi 112 betni tashkil etib, kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Sabzi navlarini biologik hususiyatlari, mahsulotni qayta ishlash usullari va texnologiyasi (adabiyotlar sharxi)**» deb nomlangan birinchi bobida sabzi ildizmevasini biologiyasi, kelib chiqish tarixi, kimyoviy tarkibi, qayta ishlash usullari, jumladan, quritish usullari va texnologiyasi, sharbat olish usullari, texnologiyasi, organik kukunning oziq-ovqat sanoatiga qo‘llash usullari bo‘yicha adabiyotlar o‘rganildi. Ushbu bob tahliliy xarakterga ega bo‘lib, tadqiqotning asosiy konsepsiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o‘tkazilgan joyning muhit sharoitlari, texnologik vositalari, manbalari va usublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari, predmetlari, tajribalarni o‘tkazish tartibi va usullari to‘g‘risida batafsil yoritilgan bo‘lib, tajribalarda olib borilgan kuzatuv va hisoblar, laboratoriya tahlillari, shuningdek, tajriba ma‘lumotlariga matematik va statistik ishlov berish tartibi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Sabzi ildizmevasidan turli sharbatlar tayyorlash texnologiyasi**» deb nomlangan uchinchi bobida sabzi ildizmevasidan sharbat tayyorlashda sabzi navlarini tanlash, xomashyo va sharbatning kimyoviy tarkibini o‘rganish, sharbat chiqish miqdoriy ko‘rsatkichlariga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish va mikroskopik tahlillar o‘tkazish, aniqlash, sharbat tayyorlashning texnologik sxemasi ishlab chiqish kabi bajarilgan amallar yoritilgan.

Sabzi ildizmevasi tarkibidagi umumiy quruq modda, β -karotin, saxaroza, vitamin, yog‘, oqsil, makro va mikro elementlar miqdori aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra mahalliy navlardagi namunalar tarkibidagi umumiy quruq modda miqdori $7,6 \div 8,4$ mg % gacha bo‘lib, undagi saxarozalar $6,3 \div 7,1$ gr, oqsil miqdori $0,9 \div 1,2$ % gacha, yog‘ miqdori esa $0,9 \div 1,4$ g, vitaminlardan β karotin $7,3 \div 9,3$ mg, vitamin C $4,1 \div 5,6$ mg va vitamin E miqdori $0,3 \div 0,8$ mg gacha bo‘lishi va ular tarkibidagi makroelementlardan kalsiy elementi $122,1 \div 146,7$ mg/l, temir moddasi, $10,1 \div 12,2$ mg/l va magniy elementi esa $49,1 \div 52,4$ mg gacha bo‘lishi aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar mahalliy navlardan “Qizil mirzoyi” va “Sariq mirzoyi” navlarida yuqoriligi kuzatildi.

Xorijiy navlardagi namunalar tarkibidagi umumiy quruq modda miqdori $6,7 \div 8,6$ mg % gacha bo‘lib, undagi saxarozalar $6,2 \div 7,0$ gr, oqsil miqdori $0,9 \div 1,5$ % gacha, yog‘ miqdori esa $1,0 \div 1,5$ g, vitaminlardan β karotin $7,6 \div 8,8$ mg, vitamin C $4,3 \div 5,6$ mg va vitamin E miqdori $0,46 \div 0,66$ mg gacha bo‘lishi va ular tarkibidagi makroelementlardan kalsiy elementi $110,6 \div 135,1$ mg/l, temir moddasi, $8,9 \div 11,3$ mg/l va magniy elementi esa $41,4 \div 52,3$ mg gacha bo‘lishi aniqlandi. Bu ko‘rsatkichlar horijiy navlardan “Лосиноостровская-13” va “Витаминная-6” navlarida yuqoriligi kuzatildi. Mahalliy va horijiy navlar kimyoviy tarkibi qiyosiy tahlil qilinganda, horijiy

navlarda umumiy quruq modda miqdori, oqsil, yog‘, temir va magniy miqdorlari mahalliy navlarga nisbatan yuqoriligi aniqlandi. Xorijiy navlardan olingan sharbat inson organizmini vitamin va minerallarga boyitishi bilan ahamiyatli hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

Sabzi ildizmevasining kimyoviy tarkibi

Navlar	Umumiy quruq modda, mg	Shundan								
		Saxar oza, g	Oqsil, %	yog‘, g	β karotin, mg	vitamin C, mg	vitamin E, mg	makro elementlar (mg/l)		
								Ca	Fe	Mg
Mahalliy navlar										
Mushak-195	7,6	6,3	0,9	0,9	7,3	4,1	0,3	122,1	10,1	49,1
Qizil mirzoyi	8,4	7,1	1,2	1,4	9,3	5,6	0,5	146,7	12,2	52,4
Sariq mirzoyi	7,8	6,4	1,0	1,2	8,7	4,8	0,7	136,4	10,2	49,6
Istiqbolli xorijiy navlar										
Лосиноостровская 13	8,5	6,9	1,3	1,5	8,8	5,0	0,66	134,6	11,1	50,7
Шантене роял	7,9	6,7	1,2	1,3	8,0	4,3	0,46	124,1	9,9	49,3
Роте-ризен	6,9	6,3	1,0	1,2	8,6	4,6	0,47	130,1	10,2	50,1
Нантезе	6,7	6,3	1,1	1,0	8,4	4,3	0,49	132,4	9,6	52,3
Витаминная-6	8,4	7,0	1,4	1,4	8,5	4,8	0,61	129,3	11,3	50,6
Ярославна	8,3	6,9	1,5	1,5	7,9	5,1	0,62	135,1	11,0	49,7
Королева осени	8,6	6,8	1,0	1,4	8,0	5,4	0,60	126,1	10,1	46,9
Нантезе-2	7,9	6,4	0,9	1,0	7,9	4,6	0,56	119,3	9,6	41,4
Роте-ризен 2	8,1	6,2	0,9	1,0	7,6	4,3	0,53	110,6	8,9	42,1

Labaratoriya sharoitida sabzi ildizmevasidan sharbat chiqish darajasini aniqlash uchun mahalliy va horijiy sabzi navlaridan foydalanildi. Tajriba natijalariga ko‘ra nazorat uchun olingan “Qizil mirzoyi” navidan 450 ml/kg, “Витаминная-6” va “Нантезе” horijiy navlaridan 500-530 ml/kg sharbat olindi. “Королева осени” va “Лосиноостровская-13” navlaridan esa 360-380 ml/kg sharbat chiqishi aniqlandi. Sharbat chiqish darajasi navning biologik va fiziologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘zak (kselema) qismining zich (bo‘ylama hujayralar) yoki yumshoq (ko‘ndalang hujayralar) joylashganligiga bog‘liqligini mikroskopik tahlillar yordamida aniqlandi. Mikroskopik tahlillarga ko‘ra ildizmeva kselema qismidagi hujayralar qancha zich joylashgan bo‘lsa undan hujayra shirasini ajralishi shuncha qiyin kechadi (2-jadval).

2-jadval

Sabzi ildizmevalarining sharbat chiqish va shirinlik darajasi

Navlar	Tajriba uchun olingan namuna, g	sharbat chiqish darajasi, ml/kg	Umumiy saxaroza miqdori, %	pH ko‘rsatkichi, %	shirinlik darajasi, ball
Qizil mirzoyi	1000	450	6,8	6,0	1,13

((nazorat)					
Лосиноостровская 13	1000	380	6,8	5,5	1,24
Шантене роял	1000	430	6,7	6,1	1,1
Роте-ризен	1000	443	6,3	6,0	1,0
Нантезе	1000	522	6,3	6,0	1,0
Витаминная-6	1000	500	7,0	5,5	1,3
Ярославна	1000	400	6,9	5,5	1,25
Королева осени	1000	360	6,8	6,0	1,13
Нантезе-2	1000	450	6,4	6,0	1,0
Роте-ризен 2	1000	430	6,2	5,5	1,12

Labaratoriya sharoitida sharbat chiqish darajasi, kimyoviy tarkibi tahlillari o'tkazilgandan so'ng, birlamchi sharbat tarkibiga ingrediylar qo'shib shartli "Ommabop", "Parxezbop", "Bolalar uchun maxsus" sharbat namunalari tayyorlandi. Buning uchun komponentlar mutanosibligi, ularning retsepturasidagi komponentlarning ratsional miqdorini aniqlash, texnologik parametrlarni ishlab chiqish asosiy masalalardan biri bo'lib, bu ko'rsatkichlar olinadigan mahsulot sifat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tayyor mahsulot sifatini organoleptik, fizik-kimyoviy, mikrobiologik tahlillar asosida aniqladik.

3-jadval

Sabzi ildizmevasidan tayyorlangan shifobahsh sharbat turlari va ularni ozuqaviylik qiymati

Sharbat turlari	Ingrediylar					
	Sabzi sharbati, ml	Zanjabil siropi, ml	Asal, g	Limon kislota, %	Olma kislota, %	Shakar, g
"Ommabop"	845	100/2,5	40	0,07	0	15
"Parxezbop"	840	100/3	40	0,07	0	20
"Bolalar uchun maxsus"	850	100/2,0	30	0	0,1	20

O'tkazilgan ko'plab dastlabki tajribalar asosida retsepturaga kiritiladigan komponentlar va ularning miqdor ko'rsatkichlari aniqlandi. Yuqorida ularning maqbul variantlari keltirilgan (3-jadval).

Sabzi ildizmevasi, undan olingan birlamchi sharbat va taklif etilayotgan sharbat namunalari "TOSHKENT TEST VA STANDARTLASHTIRISH SINOV LABORATORIYASI" MCHJda kimyoviy tahlillar o'tkazildi hamda qiyosiy tahlillar qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, ildizmeva tarkibidagi kimyoviy moddalar birlamchi qayta ishlash natijasida bir qismi kamaygan.


4-jadval

Sabzi ildizmevasi va undan tayyorlangan sharbatning kimyoviy qiyosiy tahlili


Ko'rsatkichlar nomi, o'lchov birliklari	Sinov natijalari			Sinov usullari (metodika)
	Ildizmeva tarkibi	Birlamc hi sharbat tarkibi	Tayyor sharbat tarkibi	
Yog', g	1,5	0,7	0,7	GOST 8756.21-89
Karotin, beta, mg	8,8	5,6	5,6	GOST EN 128-2- 2014
Vitamin E, mg	0,66	0,35	0,41	GOST 27547-87
Kalsiy, Ca, mg/l	134,6	44,6	46	GOST R 51429-99
Temir , Fe, mg/l	11,1	8,5	9	GOST ISO 9526- 2017
Magniy, Mg, mg/l	50,7	36	38,3	GOST R 51429-99
Rux, Zn, mg	0	0	0	GOST 26934-86
Selen, Se, mg	0	0	0	GOST 26929-94
Vitamin C, mg	5	3,0	3,5	GOST 24556-89
Saxaroz, g	6,9	6,8	9	GOST 24176-2019
Oqsil, %	1,3	1,3	1,3	GOST 10846-91
Umumiy quruq modda, g	8,5	8,3	11	

Tahlil natijalariga ko'ra, ildizmeva tarkibidagi kimyoviy moddalar birlamchi qayta ishlash natijasida bir qismi kamaygan. Tarkibiga zanjabil, asal, limon va olma kislotalari kabi ingrediyentlar qo'shilishi natijasida tayyor sharbat tarkibidagi E vitaminini 0,35 mg % dan 0,41 mg % ga, C vitaminini 3 mg dan 3,5 mg ga, temir elementini 8,5 mg/l dan 9 mg/l ga, magniy elementini 36 mg/l dan 38,3 mg/l ga, saxarozani 6,8 g dan 9 g ga ortirishga erishildi. Natijada umumiy quruq modda miqdori 8,3 g dan 11 g gacha oshgan (4-jadval).

Sabzi sharbatidan turli shifobaxsh ichimliklar tayyorlash usullari va texnologiyasini ishlab chiqish uchun umumiy uslubga asosan laboratoriya sharoitida tayyorlangan mahsulotlar namunalari asosan texnologik sxema ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan texnologik sxema ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda mahsulotlar dastlabki ishlash, ikkinchi bosqichda tayyor mahsulot tayyorlashga qaratilgan (1-rasm).



1-rasm. Sabzi ildizmevasidan shifobaxsh sharbat tayyorlashning texnologik sxemasi



2-rasm. Sabzi ildizmevasidan sharbat tayyorlash texnologik tizimi:

1- yuvish vannasi; 2- po'stlog'ini tozalash; 3-cho'tkali baraban; 4-inspeksiyalash transportyori; 5-g'ozbo'yin transportyor; 6-maydalash mashinasi; 7,11,13,17,20-nasoslar;8-sig'imli idish 9-blanshirlash jihozi; 10-presslash jihozi;12-sig'imli idish; 14-A "Quvur ichida quvur" turidagi isitish apparati; 14-B "Quvur ichida quvur" turidagi sovitish apparati; 15,16-sig'imli idish; 18-gomogenizator; 19-sharbat yig'ish; 21-A "Quvur ichida quvur" turidagi isitish apparati; 21-B "Quvur ichida quvur" turidagi sovitish apparati; 22-quyish va qadoqlash mashinasi; 23- tayyor mahsulot; 24-avtoklav.

Ishlab chiqilgan retsepturaga muvofiq sharbat tayyorlash uchun texnologik sxema ishlab chiqildi. 1-rasmda sabzi ildizmevasidan sharbat tayyorlash texnologik tizimi bayon etilgan bo'lib, qayta ishlash korxonasiga keltirilgan mahsulot yuvish vannasida 1 yuvildi, po'stlog'idan tozalash uchun 65-75 °C bug' bilan ishlov berildi 2, saralandi va 1 ÷ 2 sm bosh va orqa qismi qirildi, so'ng cho'tkali barabanda 3 qayta yuvilib, sanoat chiqindilaridan tozalandi. Inspeksiyalash transportyorida 4 saralandi. Saralangan mahsulot g'ozbo'yin transportyorida 5 maydalash mashinasiga 6 uzatiladi. Chiqqan mahsulot sig'imli idishda 8 to'plandi, mezga 65-75 °C haroratda blanshirlandi 9 va press jihozi 10 yordamida siqilib sharbat ajratib olindi. Sharbat chiqishi 75-85 % ni, ikkilamchi mahsulot 15-20 % ni tashkil etdi. Hosil bo'lgan yarim tayyor sharbat sig'imli idishda 12 to'planadi. 0,5 mm li filtdan o'tgan sharbat nasos 13 yordamida "Quvur ichida quvur" issiqlik almashinish apparatida 14-A 75 °C haroratgacha isitiladi va shunday konstruksiyali apparatda 14-B 55 °C haroratgacha sovitiladi. Sharbat sig'imli idish 15 ichiga yig'iladi. Ingrediyentlar me'yorlari o'lchanib, kichik sig'imli idishda 16 tayyorlanadi va 15 ga quyiladi. Tayyor bo'lgan sharbat gomogenizatorga 18 uzatildi. Chiqqan sharbat, sharbat yig'ish hajmiga 19 keladi. Mahsulot "Quvur ichida quvur" turidagi isitish apparatidan 21-A "Quvur ichida quvur" turidagi sovitish apparatiga 21-B jo'natiladi. Mahsulot quyishdan oldin ulardan namunalar olib, qandlilik darajasi, pH ko'rsatkichi, tarkibi va to'yimlilik darajalari kabi kimyoviy tahlillar qilinadi. Tayyor sharbat ichimligi qadoqlanadi 22 va sterilizatsiya uchun avtoklavga 24 jo'natiladi. Ishlab chiqarilgan kundan boshlab 0 °C - 25 °C gacha bo'lgan haroratda shisha qadoqlarda 2 yil saqlash muddati ko'rsatiladi.

Labaratoriya natijalariga ko'ra tayyorlangan sharbatning umumiy quruq moddasi 11 gr/l ni, pH muhiti 5,4 ga, titrlanadigan kislotani miqdori 0,13 ml/l ni, 5-gidroksilmetilfurfurol (GMF) miqdori esa 2,43 mg/l ni tashkil etdi va degustatsiya bali 4,8 ballga baholandi.

Dissertatsiyaning **"Sabzi ildizmevasini qayta ishlash usullari va texnologiyasi"** deb nomlangan to'rtinchi bobida sabzi ildizmevasini quritish usullari, rejimlari, organik kukun tayyorlash texnologiyasi va oziq-ovqat sanoatiga qo'llash me'yorlari kabi izlanishlar bajarilgan bo'lib, organik kukun tayyorlash texnologik sxemasi va tizimi, organik kukun qo'shib keks tayyorlash texnologik sxemasi, keks retsepturasi ishlab chiqilgan.

Qurtilgan mahsulotdan organik kukun tayyorlash parametrlarini ishlab chiqish uchun sabzidan organik kukun olish va uni oziq-ovqat sanoatida non va non mahsulotlari tayyorlash maqsadida Namangan viloyati sharoitlarida takroriy ekin sifatida yetishtirib kelinadigan sabzini "Qizil mirzoyi", "Sariq mirzoyi" navlarini ildizmevasidan organik kukun olish texnologiyasi ishlab chiqildi. Organik kukun olish uchun texnologik sxema va texnologiyasi ishlab chiqilib, unga asosan, laboratoriya sharoitida organik kukun namunalari olindi. Nazorat varianti uchun blanshirlanmagan mahsulot, tajriba uchun blanshirlangan mahsulot olindi. Blanshirlanmagan sabzi ildizmevalari 1,0÷1,5 sm kattalikda, parraksimon shaklda kesildi. Tajriba variantida ildizmeva blanshirlanib, quritish shaklida yupqa holda yoyilib 70÷80 °C haroratda quritildi. Quritish vaqti ildizmevani shakli va holatiga ko'ra 4-5 soat davomida quritildi. Quritish uchun qo'yilgan mahsulotdan 11,0÷11,5 % gacha, tajriba variantida esa 13,0 % gacha quritilgan mahsulot olindi. Qurtilgan mahsulotni maydalash uchun

“Bullet blender” maydalagich dastgohidan foydalanildi. Maydalash uchun har bir variantdan 100 g dan namunalar olinib, uch daqiqa davomida maydalandi. Natijada nazorat variantdan 96 %, tajriba variantidan 98,5 % gacha organik kukun olindi. Laboratoriya tahlillariga ko‘ra, tajriba variantida nazoratga nisbatan 176÷224 g gacha ortiq kukun olish mumkinligi aniqlandi. Nazorat variantda Qizil va Sariq mirzoyi navlaridan 10 kg dan olinib, ikki bosqichda tabiiy qo‘shilma va po‘st qismidan tozalandi, tozalangan sabzi parraksimon shaklda kesildi va 80 °C da kondensiyaga yetgunicha 4 soat davomida quritildi. Bu usulda quritilganda 11,5 % quruq mahsulot olindi, qurigan mahsulotni bullet blender moslamasida maydalab 96 % gacha kukun olishga erishildi. Blansirovka qilingan Qizil va Sariq mirzoyi navlaridan yuqori sifatli o‘ziga xos rangga ega bo‘lgan kukun ajratib olindi. Blansirovka qilinmasdan quritilgan variantdan navlar bo‘yicha 1100 va 1150 g gacha mahsulot olindi, kukun chiqish miqdori ham nisbatan kamroq 96 % ni tashkil qildi (5-jadval)

5-jadval

Quritilgan sabzi ildizmevasidan organik kukun chiqish miqdori

Navlar	Variant	Quritish uchun olingan mahsulot, kg	Quritilgan mahsulot		Kukun chiqish darajasi		Nazoratga nisbatan farq ± g
			%	g	%	g	
Qizil mirzoyi	Blanshirlanmagan(nazorat)	10	11.5	1150	96	1104	
Sariq mirzoyi		10	11	1100	96	1056	
Qizil mirzoyi	Blanshirlangan	10	13	1300	98,5	1280	+176,0
Sariq mirzoyi		10	13	1300	98,5	1280	+224

Organik kukun miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga quritish usullarini ta’sirini o‘rganish uchun mahalliy sabzi navlaridan har bir variant uchun 10 kilogramdan namunalar olinib, uch xil variantda tabiiy holda ochiq maydonlarda, quritish shkafida va sublimatsiya (zamonaviy liofilizatsiya) usulida quritish ustida tajribalar o‘tkazildi. (6-jadval).

Organik kukun sifat ko'rsatkichlariga quritish usullarini ta'siri.

Variant	Olingan mahsulot miqdori, kg	Qurigan mahsulot chiqish darajasi, kg	Fraksiyalar bo'yicha %						Chiqindi miqdori	
			I		II		III		kg	%
			kg	%	kg	%	kg	%		
Tabiiy holda (nazorat)	10	1,4	1,05	75	0,14	10	0,07	5	0,14	10
Quritish shkafida	10	1,3	1,105	85	0,065	5	0,065	5	0,065	5
Liofilizatsiya usulida	10	1,8	1,6	89	0,126	7	0,074	4	0	0


Ildizmevalardan olingan organik kukunning sifat ko'rsatkichlari shu jumladan, rangi, hidi, ta'mi laboratoriya sharoitida aniqlandi va qiyosiy tahlillar qilindi. Ildizmevadan olingan kukun sensorik baholanganda uning rangi nav xususiyatidan kelib chiqib, to'q sariq va sariq, pushti va sarg'imir rangga egaligi va ularning hidi, ta'mi navga xos ekanligi aniqlandi (7-jadval).

7-jadval

Sabzi ildizmevasidan olingan organik kukunni fizik xususiyatlari

Variant	Olingan kukun namunasi, g	Rangi	Hidi	Suvdagi eruvchanligi, %			Nazoratga nisbatan farq ±
				40 °C (nazorat)	60 °C	80 °C	
Qizil mirzoyi	100	Pushti	O'ziga xos	55	65	75	
Sariq mirzoyi	100	Sarg'imir	O'ziga xos	54	65	75	+21
Shantene	100	Sariq	O'ziga xos	50	60	70	+20

Sabzi ildizmevasidan sanoatda organik kukun tayyorlash uchun avvaldan ishlab chiqilgan texnologik sxema asosida sabzi ildizmevasi olindi va yuvish vannasida 1 birlamchi yuvildi va yopishgan loy, chang zarrachalaridan tozalandi. 1÷2 sm yuqori va pastki qismi qirildi. Saralash uchun rolikli konveyerdan 2 foydalanildi. Ventilyatorli yuvish mashinasida 3 yuvildi. Tozalangan mahsulotni po'stlog'idan tozalash mashinasida 4 po'stlog'idan tozalandi va vannada 5 qayta yuvildi. Kesish mashinasida 6 kesildi va lentali konveyer 7 orqali konvektiv quritish shkafiga 8 yo'naltirildi. Quritish shkafida quruq moddasi 10÷11 % qolguncha 3 ÷ 3,5 soat davomida quritildi. Qurigan mahsulotni maydalagichda 9 kukun holiga keltirildi. Maydalagich maxsus elak bilan ta'minlangan bo'lib, kukun fraksiyalarga ajratildi, elakdan o'tmagan mahsulot qayta maydalagichga tushadi (2-pacm).



3-rasm. Sabzi ildizmevasidan organik kukun tayyorlash texnologik tizimi
 1 - yuvish vannasi; 2 - rolikli inspeksion konveyer 3 - ventilyatorli yuvish mashinasi; 4 - po‘stlog‘idan tozalash mashinasi; 5 - yuvish vannasi; 6 - kesish mashinasi; 7 - rolikli lentali konveyer; 8 - konvektiv quritish shkafi; 9 - maydalagich jihozi; 10 - sabzi kukuni

Bu usulning vazifasi sabzi va zanjabil ildimevalaridan tayyorlangan organik kukundan oziq-ovqat sanoatida turli mahsulotlar (non va non mahsulotlari, kekslar, bir xil tarkibli turli ko‘rinishdagi pishiriq) tayyorlashda foydalanish usulini ilmiy-amaliy va sanoatga tadbiq etishdan iborat. Bu usulni mohiyati shundan iboratki, ildizmevalar kukuni asosida keks tayyorlash usuli oliy navli bug‘doy uni, o‘simlik moyi, shakar, sabzi va zanjabil kukuni, shuningdek, sut mahsuloti, iste‘mol sodasi va tuxum oqsili aralashmasi qo‘shiladi, aralashtirib xamir tayyorlandi va xamirni 20 daqiqa ushlab turildi, shakl berildi va 180 °C da pishirildi


8-jadval

Sabzi kukuni qo‘shib tayyorlangan keksning umumiy tahlili

Mahsulot turi	V ₀	V ₁	V ₂	V ₃	V ₄
Un	100	85	80	75	70
Shakar	7	7	7	7	7
Yog‘	7	7	7	7	7
Sabzi kukuni	0	15	20	25	30
zanjabil kukuni	0	0.7	0.9	1	1.2
Boshqa qo‘shilmalar	15-20	15-20	15-20	15-20	15-20

Sabzi ildizmevasi va zanjabil ildiztugunagidan tayyorlangan organik kukun qo‘shilgan keks tayyorlash uchun besh xil variantda: V_0 nazorat va V_1 - V_4 tajriba variantlarida tajribalar o‘tkazildi. V_0 nazorat varianti uchun odatiy sanoatda tayyorlanadigan tarkibiga hech qanday BFQ qo‘shilmagan kekslardan foydalanildi. Tajriba natijalariga ko‘ra V_3 eng maqbul variant bo‘lib, keksning organoleptik ko‘rsatkichlari yuqori baholandi (8-jadval).

Massasi 75 g bo‘lgan keks tayyorlash uchun quyidagi miqdorda mahsulotlar kerak bo‘ldi: oliy navli bug‘doy uni – 30 g; sut mahsuloti – 11,25 g; sariyog‘ yoki o‘simlik moyi – 5,25 g; sabzi kukuni – 18,75 g; zanjabil kukuni – 1 g; shakar-qum – 5,25 g; iste‘mol sodasi – 0,5 g va tuxum oqsili – 3,75 g.



4-rasm. Organik kukun qo‘shib keks tayyorlash texnologik tizimi

Sut mahsuloti sifatida qatiqdan foydalaniladi, uni idishga solib ustiga ichimlik sodasi qo‘shiladi va aralashtirgich yordamida aralashtirildi, ustiga shakar solib aralashtirish davom etiladi, eritilgan sariyog‘, tuxum oqsili, sabzi kukuni, zanjabil kukuni, bug‘doy uni solib, suyuq xamir tayyorlanadi. Tayyor bo‘lgan xamirni 20 min. tindiriladi. Keks qolipchalarini yog‘lab xamir quyiladi va 180°C da pechda 30 min. pishirib olinadi. Keks tayyor bo‘ladi (3-rasm).

Tadqiqotlar davomida sabzi ildizmevasidan tayyorlangan organik kukundan BFQ sifatida qo‘shib tayyorlangan keksning organoleptik ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tayyorlangan kekslarni degustatsion tahlilini o‘tkazish uchun 10 kishilik tarkibdan iborat bo‘lgan degustatsion komissiyasi tuzildi va biologik faol modda qo‘shilmagan oddiy kekslar 1-nomer va biologik faol modda qo‘shilgan taklif etilayotgan keks namunalari 2-nomer bilan belgilandi va ikkisi qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra taklif etilayotgan keks namunalari ta‘m va hidi, yuzasi, tuzilishi, shakli jihatidan baholandi. Tahlil natijalariga ko‘ra nomer-2 kekslardagi BFQ larni ta‘mi va hidi keksga yoqimli ta‘m va hid bergan (9-jadval).

Sabzi ildizmevasidan tayyorlangan organik kukundan BFQ sifatida qo'shib tayyorlangan keksning organoleptik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich nomi	Hususiyatlari
Ta'mi va hidi	Keks tarkibiga kiritilgan ingredientlar qo'shimchalar va xushbo'y moddalarning boy ta'mi va o'ziga xos hidiga ega, begona ta'm va hidsiz mahsulot
Yuzasi	Yuqori qismi konveks bo'lib, xarakterli yoriqlar, har xil pardozlash turlari yoki ularsiz, lateral sirt aniq ko'rinmaydi. Pastki va yon yuzalarda bo'shliqlar, kuyishlar, uzilishlar va notekicliklar mavjudligiga yo'l qo'yilmaydi
Tuzilishi	Yumshoq, bog'langan, bir xil g'ovaklikka ega, bo'shliqlarsiz va zichlashmagan.
Shakli	To'g'ri, yuqori yuzasi konveks. Pastki va yon yuzalari tekis, bo'shliqlar va qobiqlarsiz

“Sabzi ildizmevasidan turli sharbatlar tayyorlash texnologiyasini iqtisodiy samaradorligi” bo‘limida sabzi ildizmevasidan shifobaxsh sharbatlar tayyorlash texnologiyasining iqtisodiy jihatdan samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlandi. Buning uchun tadqiqotlar yakunida tayyorlangan va sanoat sinovlari o'tkazilgan mahsulotlarni miqdorlari va turlari bo'yicha ishlab chiqarish harajatlari, jumladan, bevosita va bilvosita harajatlar aniqlandi. Har bir tur mahsulotdan 100 litrdan mahsulot olinib, ular iste'molchini talab va ehtiyojiga ko'ra kichik idishlarga qadoqlandi va tegishli yorliqlar bilan ifodalandi. Mahsulotning tannarxi, uning sotish bahosi, yalpi daromad, sof daromad va rentabellik ko'rsatkichlari aniqlandi. Sabzi ildizmevasidan sharbat tayyorlash iqtisodiy jihatdan samarali tadbir ekanligi kuzatildi. Xususan, “Ommabop” sharbat turini ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik darajasi 23,0 % ni tashkil etgan holda, “Parxezbop” va “Bolalar uchun maxsus” sharbat turlarini ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik darajasi 28,5 % ga yetdi (10-jadval).

Sabzi ildizmevasidan turli sharbatlar tayyorlash texnologiyasining iqtisodiy samaradorligi

T.r.	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Sharbat turlari		
			“Ommabop”	“Parxezbop”	“Bolalar uchun maxsus”
1.	Tayyor mahsulot miqdori	l	100	100	100
2.	Umumiy harajat	ming so'm	1300	1400	1400
3.	Mahsulotni tannarxi	l/so'm	13000,0	14000,0	14000,0
4.	Mahsulotni sotish bahosi	l/so'm	16000,0	18000,0	18000,0

10-jadval davomi

5.	Yalpi daromad	ming so‘m	1600	1800	1800
6.	Sof daromad	ming so‘m	300	400	400
7.	Rentabellek darajasi	%	23,0	28,5	28,5

XULOSA

2022-2024 yillarda sabzi ildizmevasini qayta ishlash va organik kukun olish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida quyidagicha xulosalar qilindi:

1. Sabzi ildizmevasidan sharbat tayyorlashda quruq moddasi $7 \div 8,4$ mg % dan yuqori bo‘lgan mahalliy va horijiy navlar Qizil mirzoyi, Vitaminnaya-6 va Nantezedan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Sabzi ildizmevasidan “Ommabop”, “Parxezbop” va “Bolalar uchun maxsus” sharbatlar tayyorlashda ingrediylar sifatida zanjabil kukunidan 2-3 g/l, asal 30-40 g/l, limon kislota 0,07 %, olma kislota 0,1 % qo‘shib tayyorlash maqsadga muvofiq;

3. Sabzi ildizmevasidan turli sharbatlar tayyorlashda ishlab chiqilgan TY 203948386-01:2024 dan foydalanish tavsiya etiladi.

4. Sabzi ildizmevasidan organik kukun tayyorlash uchun mahsulotni konvektiv usulida 6x6x6 mm qalinlikda kesib quritish tavsiya etiladi.

5. Oziq-ovqat sanoatida keks tayyorlash uchun mahsulot hajmiga nisbatan BFQ sifatida sabzi kukuni $20 \div 25$ % va zanjabil kukuni $0,9 \div 1,0$ g qo‘shib tayyorlash tavsiya etiladi.

6. Qayta ishlash sanoat korxonalarida sabzi ildizmevasidan 100 l sharbat turlarini tayyorlashda $1,6 \div 1,8$ mln.so‘m daromad olishga erishiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
PhD.03/31.03.2023.Т.66.05 ПРИ НАМАНГАНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

НЕМАТОВА ДИЛДОРА ОДИЛЖОН КИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ МОРКОВИ И
ПОЛУЧЕНИЯ ОРГАНИЧЕСКОГО ПОРОШКА**

**02.00.17 – Технология и биотехнология обработки, хранения и переработки
сельскохозяйственных и пищевых продуктов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2024.4.PhD/Т4611.

Диссертация выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nammti.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель:

Мерганов Авазхон Тургунович

доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты:

Маматов Шерзод Машрабжанович

доктор технических наук, профессор

Мамаджанов Латифжон

кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный химический институт

Защита диссертации состоится “15” март 2025 года в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/31.03.2023.Т.66.05 при Наманганском инженерно-технологическом институте по адресу: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская, 7. Тел.: (69) 225-10-07; faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz (3-корпус, 1-этаж, зал научного совета).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института (зарегистрирована за номером 369). Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская, 7. Тел.: (69) 225-10-07; faks: (69) 228-76-75

Автореферат диссертации разослан “27” февраля 2025 г.
(реестр протокола рассылки № 17 от “27” февраля 2025 г.).



А.А. Худайбердиев
Председатель Научного совета
по присуждению учёной
степени, д.т.н., профессор

О.Т. Маллабаев
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению учёной
степени, д.ф.х.н., доцент

А.М. Хурматов
Председатель научного семинара
при Научном совете по
присуждению учёной степени,
д.т.н., профессор

Перейти на

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и значимость темы диссертации. В мире проведено множество разработок по выращиванию корнеплодов моркови, изучению агробиологических показателей и повышению всхожести семенной продукции. В ходе этих исследований были разработаны нормы и режимы сушки и хранения корнеплодов моркови, способы переработки и способы использования в пищевой промышленности. В перерабатывающей промышленности мало изучены вопросы приготовления лечебных соков из корнеплодов моркови, приготовления хлеба и хлебобулочных изделий из органических порошков в пищевой промышленности. В связи с этим внедрение инновационных технологий в сельском хозяйстве и получение новых видов продукции в промышленности, ориентация их на экспорт считаются сегодня актуальными вопросами и имеют важное научное и практическое значение.

В мире проводятся широкомасштабные исследования по удовлетворению спроса на качественные продукты питания, созданию новых видов продукции на основе современных технологических процессов, совершенствованию производственных процессов, внедрению высокоэффективных современных технологий. Особое внимание уделяется научным и практическим исследованиям, проводимым по приоритетным направлениям, направленным на переработку фруктов и овощей, эффективную организацию процессов производства новых видов пищевой продукции на их основе, удовлетворение постоянного спроса населения на эту продукцию, производство новой функциональной продукции на основе безотходных технологий за счет снижения энергопотребления.

В нашей республике особое внимание уделяется совершенствованию технологий, позволяющих полностью сохранить состав сырья при эффективной переработке фруктов и овощей. В целях увеличения объемов производства соков реализуется ряд мероприятий по совершенствованию технологий производства, комплексной переработке сырья, переоснащению предприятий отрасли современными технологиями и высокотехнологичным оборудованием. В стратегии развития нового Узбекистана в рамках реализации программы развития пищевой промышленности поставлены такие задачи, как «...увеличить к 2026 году объемы производства продуктов питания до 7,4 млн тонн и ассортимент продуктов питания с 898 до 1100...».² В связи с этим большое значение приобретают научные исследования, направленные на повышение качества процессов производства продуктов питания и эффективное использование вторичного сырья.

Исследование данной диссертационной работы в определенной степени послужит реализации задач, предусмотренной Указами и Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 23.10.2019 г. № УП-5853 “Об

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 "О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы

